

ZAMONAVIY QURILISH LOGISTIKA TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI

Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich

Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot va servis” kafedrası dotsenti

xitoyabdulla@mail.ru

+99891 6624003

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy qurilish sektori kompleks va katta hajmdagi loyihalar bilan shug‘ullanmoqda. Shu bilan birga, resurslar va vaqtni tejash zarurati mavjud. Samarali logistika tizimi qurilish jarayonlarini yanada tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va ish sifatini yaxshilaydi. **Kalit so‘zlar.** Samaradorlik, materiallarni boshqarish, raqamli qurilish, qurilish loyihalari, qurilish boshqaruvi.

KIRISH

Zamonaviy qurilish sanoati jahon iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir. Qurilish sohasining o‘shishi va rivojlanishi bilan birga, ushbu jarayonda foydalaniladigan logistika tizimlari ham ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish logistikasining samarali tashkil etilishi loyiha boshqaruvining muvaffaqiyatli bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi, chunki bu jarayonlarda vaqt, mablag‘ va resurslarni oqilona taqsimlash zarurati mavjud. Qurilish logistikasining asosiy vazifasi — materiallar, jihozlar va ishchi kuchining samarali harakatini ta‘minlashdir. Qurilishning har bir bosqichi (loyiha rejalashtirish, qurilish, montaj, sinovdan o‘tkazish va boshqalar) logistikaning mukammal boshqarilishini talab qiladi.

Logistik tizimning samarali tashkil etilishi qurilish jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, resurslarni samarali boshqarish va umumiy ish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy qurilishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda qurilish logistikasida qo‘llaniladigan an‘anaviy usullar ko‘pincha samarali emas, chunki ular ko‘p vaqt va resurslarni talab qiladi. Shu bois, yangi yondashuvlar va texnologiyalar, masalan, **lean construction**, **just-in-time (JIT)** tizimlari, **ERP** (Enterprise Resource Planning) va raqamli qurilish texnologiyalarini joriy etish zarurati paydo bo‘lgan. Ushbu texnologiyalar qurilish jarayonlarini soddalashtirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va ma‘lumotlarni tezkorlik bilan almashish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi qurilish logistikasining samaradorligini oshirishning asosiy usullarini o‘rganish, shuningdek, yangi texnologiyalarni tatbiq etish orqali bu tizimni yanada samarali qilish yo‘llarini tahlil qilishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy qurilish logistika tizimlarining samaradorligini oshirish usullarini o‘rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya, asosan, sistemali yondashuv, statistik tahlil qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish logistikasining samaradorligini oshirishga oid tadqiqotlar, asosan, materiallarni boshqarish, vaqtni taqsimlash, resurslarni optimallashtirish va qurilish jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Quyida bu borada o‘tkazilgan asosiy ilmiy tadqiqotlar va metodologiyalarni ko‘rib chiqamiz. Qurilish logistikasining asosiy vazifalari va uning ahamiyati haqidagi tadqiqotlar ko‘p. Birinchi yirik ilmiy ishlar qurilish jarayonlarida logistikaning asosiy rolini aniqlashga qaratilgan edi. Masalan, Ballard va Howell (1994) tomonidan olib borilgan tadqiqotda lean construction yondashuvining qurilish jarayonlarida samaradorlikni oshirishdagi roli o‘rganilgan. Ularning fikriga ko‘ra, lean construction yondashuvi ortiqcha vaqt va resurslarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa qurilish jarayonlarini optimallashtirishga olib keladi. Just-in-Time (JIT) yondashuvi qurilishda materiallar va jihozlarni faqat zarur vaqtda va kerakli miqdorda etkazib berish prinsipi asosida ishlaydi. Dorman va Kim (2008) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda JIT yondashuvi qurilish sohasida qanday qo‘llanilishi, uning qurilish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, JIT yondashuvi materiallar va jihozlarning ortiqcha saqlanishini oldini olib, saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

Rosiyalik iqtisodchi olimlar oqimga quydagicha ta’riflar berishgan, O. Novikov va S. Uvarov oqimni ma’lum vaqt oralig‘ida jarayon sifatida mavjud bo‘lgan va absolyut birliklarda o‘lchanadigan obyektlar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqadilar, bu esa bir butun sifatida qabul qilinadi.

V. Staxanov va V. Ukrainsev iqtisodiy oqimni nisbatan bir xildagi iqtisodiy elementlar to‘plami deb bilishadi, bu elementlar ma’lum bir xo‘jalik tizimi doirasida manbadan (ishlab chiqarish) maqsadga (iste’mol) o‘tadi. Bu ta’rif iqtisodiy mikrosistema (firma) uchun ancha tor va aniqroq, pragmatikroq ko‘rinadi.

Adabiyotlar sharhining bu bo‘limida qurilish logistikasining samaradorligini oshirishga qaratilgan turli ilmiy tadqiqotlar, yondashuvlar va texnologiyalarni muhokama qildik. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy qurilishda logistika tizimlarini samarali boshqarish va optimallashtirish uchun yangi texnologiyalar, innovatsion usullar va integratsiyalangan tizimlarni joriy etish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy qurilish logistika tizimlari murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizimlardir. Har bir komponent (materiallar, resurslar, ishchi kuchi, vaqt, texnika va boshqalar) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga olish, tizimning samarali ishlashini ta’minlaydi. Logistika tizimlarining samaradorligini oshirish uchun, ularni faqat alohida elementlar sifatida emas, balki butun bir tizim sifatida ko‘rish kerak.

Sistemali yondashuv — bu qurilish logistikasini tahlil qilishda samarali usul bo‘lib, barcha jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini e’tiborga olishga imkon beradi. Masalan, materiallarning to‘g‘ri vaqtda etkazib berilishi, bu materiallarni saqlash joylari va ishchi kuchi orasidagi o‘zaro bog‘lanishlar to‘g‘ri rejalashtirilgan holda, tizim umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy qurilishda **texnologiyalarni joriy etish** logistika tizimlarini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalar yordamida materiallarni boshqarish, etkazib berish va saqlash tizimlarini yaxshilash mumkin.

- **ERP tizimlari** (Enterprise Resource Planning) — qurilishda resurslarni boshqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. ERP tizimlari yordamida qurilish resurslari (materiallar, ishchi kuchi, texnikalar) haqidagi barcha ma’lumotlar bir markazga to‘planadi. Bu ma’lumotlar real vaqt rejimida yangilanadi va boshqaruvchilarga o‘z vaqtida va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

- **RFID va GPS texnologiyalari** qurilish jarayonlarini kuzatish va boshqarishni yanada soddalashtiradi. RFID yordamida materiallar va jihozlar real vaqt rejimida kuzatiladi, bu esa kechikishlarni kamaytiradi va materiallarning yetkazib berish jarayonini optimallashtiradi. GPS texnologiyalari yordamida transport va materiallar oqimi ham to‘liq nazorat qilinadi.

- **Dronlar va robototexnika** ham qurilish logistikasida samaradorlikni oshirishda yordam beradi. Dronlar yordamida materiallar va jihozlarni yuqori tezlikda tashish, robotlar esa qurilish maydonlarida materiallarni joylashtirishda qo‘llaniladi. Bunday texnologiyalar nafaqat vaqtni tejaydi, balki inson xatoliklarini kamaytiradi va umumiy ish samaradorligini oshiradi.

Lean Construction — bu qurilish jarayonlarida resurslardan maksimal darajada foydalanish va isrofgarchilikni kamaytirish uchun qo‘llaniladigan yondashuvdir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — qurilish jarayonlarida ortiqcha vaqt, xarajat va resurslarni kamaytirishdir.

- **Materiallar boshqaruvi:** Lean construction yordamida materiallar faqat zaruriyat bo‘yicha etkazib beriladi. Bu esa, ortiqcha saqlash xarajatlari va materiallarni saqlash joylarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida ortiqcha vaqt va ishchi kuchini sarflash oldi olinadi.

- **Vaqtning boshqarish:** Lean construction usullari yordamida qurilish jarayonlari yanada samarali rejalashtiriladi. Har bir jarayonni maksimal darajada tezlashtirish uchun minimal resurslar va vaqt sarflanadi. Bu esa qurilishning umumiy davomiyligini qisqartiradi va loyiha muddatida tugashiga yordam beradi.

- **Qurilish tizimlarining soddalashtirilishi:** Lean construction yondashuvi yordamida qurilish jarayonlari soddalashtiriladi, bu esa ortiqcha ishchi kuchi va materiallar sarfini kamaytiradi. Shu tarzda, jarayonlarni optimallashtirish va resurslarni tejash mumkin bo‘ladi.

Hisoblash va analitik usul korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari prognoziga asoslanadi va ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatlar bilvosita, bir qator hisobot davrlari uchun tahlillarga asoslangan bo‘lsa qo‘llaniladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashning yana bir usuli rejalashtirilgan yechimlarni optimallashtirish usulidir. Bu usul bir nechta hisoblash variantlarini ishlab chiqish va ulardan faqat bittasini tanlashga asoslanadi. Eng yaxshi variantni tanlashda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi: investitsiya qilingan kapitalning maksimal daromadlilik, yuqori foyda darajasi, yuqori kapital aylanmasi, korxonaning qarzi va o‘z mablag‘larining optimal nisbati, yuqoridagi barcha xarajatlarning eng kam darajasi.

Balans usuli. Ushbu usul balans koeffitsientlarini rejalashtirilgan moliyaviy resurslarga bog‘lashga asoslanadi. Bu usul foydani rejalashtirish va taqsimlashda, shuningdek ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan iste‘mol va jamg‘arish fondlarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Balans usulining afzalligi harakatlarning asosligidadir, chunki dastlab buxgalteriya hisobi uchun daromad va xarajatlarning to‘g‘ri elementlari zarurdir.

Normativ usul. Bu usul ishlab chiqarish xarajatlarining bir qator ko‘rsatkichlarini hisoblash jarayonida qo‘llaniladigan me‘yorlar tizimiga asoslanadi. Usulning afzalligi shundaki, standart va haqiqiy ko‘rsatkichni hisobga olgan holda, og‘ishlarni hisoblash va aniqlangan chetlanishlar asosida ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish mumkin. Bu usulning kamchiligi hisob darajasiga asoslangan standartlarni tahlil qilishda chetga chiqish hisoblanadi va u cheklanadi, shuning uchun bu hisob tizimida ma‘lum xarajatlar aks etishi doirasida axborot olishning kechikishiga olib keladi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli. Bu usul korxonalar tomonidan moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan ularni belgilovchi omillar o‘rtasida miqdoriy munosabatlarni o‘rnatish uchun qo‘llaniladi. Usulning afzalligi sifatida regressiya asosida moliyaviy ko‘rsatkichlarni rejalashtirishni keng amalga oshirish mumkinligini, uning kamchiligi sifatida qisqa muddatli trendlar umumiy o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlashga imkon bermasligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Pul oqimlari usuli, rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan eng universal usul bo‘lib, korxonalar uchun muhim bo‘lgan moliyaviy resurslarni olish vaqtini va hajmini bashorat qilishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi, bu erda “ pul oqimlarini prognoz qilish nazariyasi ma‘lum bir sanada pul mablag‘lari olinishini kutish va barcha xarajatlarni rejalashtirishga asoslangan”⁶¹.

Yuqorida tavsiflangan usullardan tashqari, hozirgi davrda moliyaviy natijalarni baholashni boshqarish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar tizimi qo‘llaniladi.

“Dayrekt-kosting”ning asosiy yo‘nalishlaridan biri «Activity Vased Sosting» (ABC), ya‘ni operatsiyalar asosidagi kalkulyatsiya iqtisodiy parametri hisoblanadi.

Marjinal daromad usuli. Marjinal daromad miqdori korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash va yakuniy foyda olishdagi ulushini ko‘rsatadi. Ushbu bosqichda marjinal daromad miqdorini aniqlashga ikkita yondashuv mavjud: daromaddan barcha o‘zgaruvchan xarajatlarni chiqarib tashlash orqali hamda doimiy xarajatlar va korxonalar foydasi yig‘indisi orqali. Shubhasiz, boshqaruv asosida xarajatlarni tahlil qilish shaklidan xarajatlarni boshqarishga o‘tish korxonalar uchun istiqbolli vazifadir.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida jami 233,8 trln so‘m qurilish ishlari bajarilib, 2023 yilga nisbatan 8,8 % ga o‘sdi.

⁶¹ Брусов П. Н. Финансовый менеджмент. Финансовое планирование: учеб. пособие /П. Н. Брусов, Т. В. Филагова. - М.: КНОРУС, 2018. – с. 48

Qurilish ishlarining hajmi dinamikasi (yanvar-dekabr oylari uchun, trln so‘m)⁶²



2024 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 71,7 % ulushni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik ob‘ektlarini qurish yo‘nalishi 19,3 % ulushni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 124,7 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 9,0 % ulushni va 2023 yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarida tashqi omillarni o‘zgartira olmaydi, shuning uchun ularni logistika faoliyatini rejalashtirishda eng yuqori darajadagi samaradorlikni ta‘minlash uchun inobatga olish muhimdir. Qurilish korxonalarida ichki omillarni o‘zgartirish orqali, korxonalar logistika faoliyatining samaradorligini yaxshilash imkoniyatiga ega. Tashqi omillarga yetkazib beruvchilar, xaridorlar, transport infratuzilmasi, iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, ilmiy-texnik rivojlanish, siyosiy va xalqaro siyosatdagi o‘zgarishlar, iqlim sharoiti va korxonaning geografik joylashuvi, raqobatchilar faoliyati va soliq qonunlari kiradi. Qurilish korxonalarida ichki omillarga tarqatish tarmog‘ining rivojlanganligi, taqsimot markazlari, kadrlar va ularning rag‘batlantirilishi, korxonaning tashkiliy strukturasi, iqtisodiy faoliyatning samaradorligini, korxonalar foydalanadigan dasturiy ta‘minotni va shuningdek, ombor uskunalarini va texnologiyalarni kiritish mumkin. Qurilish korxonalarida logistika faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari, zaxiralarni boshqarish, transport, omborlash, qadoqlash, yukni qayta ishlash, xarid qilish va tarqatish kabi turli logistika sohalarida taqdim etilgan.

Logistika faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagi yondashuvlar va texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishlar tashkilotlar va kompaniyalar tomonidan logistika jarayonlarini yaxshilash va optimallashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Logistika samaradorligini oshirish, ayniqsa, qurilish, ishlab chiqarish va savdo sohalarida o‘zining ahamiyatini yanada oshiradi.

1. Resurslarni optimallashtirish

Resurslardan samarali foydalanish logistika tizimining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bu:

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Materiallar va resurslarni rejalashtirish va boshqarish: Tez-tez ta’minotdagi o’zgarishlar va taqsimotning notekisligi tufayli ortiqcha resurslar yoki yetishmasliklar yuzaga kelishi mumkin. Resurslarni aniq rejalashtirish va prognozlash yordamida ularning samarali taqsimoti amalga oshiriladi.

Inventarizatsiya boshqaruvi: Yaxshi tashkil etilgan inventarizatsiya tizimi ishlab chiqarish va ta’minot jarayonlarini optimallashtiradi. Modernizatsiya qilinadigan tizimlar yordamida kerakli materiallar va resurslar aniq belgilangan vaqtda yetkaziladi.

2. Logistika tarmog‘ini optimallashtirish

Logistika tarmog‘i barcha transport, saqlash va taqsimot tizimlarini o‘z ichiga oladi. Samarali logistika tarmog‘ini yaratish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Transport tizimini optimallashtirish: Transport tarmog‘ini optimallashtirish uchun eng qulay va samarali transport vositalari tanlanadi. Bu transport jarayonlari vaqtini qisqartiradi va transport xarajatlarini kamaytiradi.

Marshrutlarni rejalashtirish va optimallashtirish: Logistika jarayonlarida samarasiz marshrutlar va yo‘nalishlar vaqt va xarajatlarni oshirishi mumkin. Samarali marshrutlarni tanlash orqali yuk tashish va transport xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Sklading tizimini yaxshilash: Tovarlarni saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish tizimini optimallashtirish orqali saqlash xarajatlari kamayadi va omborlardagi jo‘natmalarni tezroq va samarali taqsimlash mumkin bo‘ladi.

3. Just-in-Time (JIT) tizimini tatbiq etish

Just-in-Time (JIT) tizimi materiallar va resurslarni faqat kerakli vaqtda etkazib berishga asoslanadi. Bu:

Saqlash xarajatlarini kamaytirish: JIT tizimi yordamida materiallar faqat kerakli vaqtda etkazib beriladi, bu esa saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

Kechikishlarni kamaytirish: Materiallar o‘z vaqtida yetkazib berilishi qurilish yoki ishlab chiqarish jarayonlaridagi kechikishlarni kamaytiradi va vaqtni tejashga yordam beradi.

Ma’lumot almashinuvi va boshqaruv: JIT tizimi yordamida etkazib beruvchilar bilan aniq va doimiy aloqada bo‘lish zarur, bu jarayonlarni yanada samarali qilishga yordam beradi.

4. Barqaror logistika

Barqaror logistika atrof-muhitni asrash, energiya va resurslardan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu:

Ekologik jihatlarni hisobga olish: Ekologik jihatlarni logistika jarayonlarini boshqarishda muhim o‘rin tutadi. Tabiatni asrash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish orqali ekologik ta’sirni kamaytirish mumkin.

Energiya samaradorligini oshirish: Yangi texnologiyalar yordamida transport va saqlash jarayonlarida energiya samaradorligini oshirishga imkon yaratish, shu bilan birga, xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Transportni optimallashtirish: Kam zararli emissiyalarni chiqaradigan transport vositalarini qo‘llash orqali ekologik izni kamaytirish va transport xarajatlarini optimallashtirish mumkin.

5. Inson resurslarini boshqarish va malakali ishchilarni tayyorlash

Logistika samaradorligini oshirishning muhim jihatlaridan biri — malakali ishchi kuchini tayyorlash va inson resurslarini samarali boshqarishdir. Bu:

Logistika boshqaruvi bo'yicha ta'lim va treninglar: Ishchilarni yangi texnologiyalar va boshqaruv tizimlari bo'yicha o'rgatish va malakalarini oshirish, jarayonlarni yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Motivatsiya va rag'batlantirish: Ishchilarning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish orqali logistika jarayonlarining samaradorligini ta'minlash mumkin.

(1-jadval)⁶³

Logistika faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha sohalar

No	Logistika sohalari	Samaradorlikni oshirish yo'nalishlari
1	Ta'minot zanjirini boshqarish	Ishlab chiqarish zaxiralari narxi korxonaning ishlab chiqarish tizimi uchun eng maqbul bo'lishi zarur. Tayyor mahsulot zaxiralari iste'molchi talabidagi o'zgarishlarga tezda javob berishga yordam beradi, ishlab chiqarish zaxiralari esa ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlaydi.
2	Transport vositalarini tanlash	Transport vositalarini tanlash va tashish jarayonini amalga oshirishda xarajatlar va ishonch darajasi hamda eng maqbul transport vositalarini tanlash, bu yukning turi va manziliga qarab o'zgaradi (masalan, yuk mashinalari, poezdlar, kemalar, samolyotlar).
3	Saqlash	Ombor faoliyatini yaxshilash uchun katta ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish va statistik tahlillarni amalga oshirish.
4	Qadoqlash	Qadoqlashni optimallashtirish — bu mahsulotlarni joylashtirish va yuklash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida qadoqlash xususiyatlarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.
5	Yukni qabul qilish	Yukni omborga olib kelish va qabul qilish jarayonlari, shu jumladan, hujjatlarni rasmiylashtirish.
6	Xarid qilish	Xaridlarni amalga oshiruvchi xodimlarning malakasini oshirish va buyurtmani rejalashtirishning optimal tizimini tanlash — bu xarid jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim yo'nalishlar
7	Ta'minot va tarqatish (taqsimlash)	Tovar harakatining barcha jarayonlarini muvofiqlashtirish — bu ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan yakuniy amallardan tortib, iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlargacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Shuningdek, tayyor mahsulotlar va xizmatlarni taqsimlash jarayonlarini boshqarish funksiyalarini birlashtirish ushbu faoliyatni samarali boshqarish uchun mo'ljallangan.

Logistika faoliyatining samaradorligini oshirish, eng avvalo, resurslarni optimallashtirish, transport tizimini yaxshilash, zamonaviy axborot texnologiyalarini

⁶³ Muallif ishlanmasi

qo'llash va barqaror logistika yondashuvlarini joriy etishga bog'liqdir. Ushbu yo'nalishlar kompaniyalar va tashkilotlarga nafaqat samarali ish yuritishga yordam beradi, balki xarajatlarni kamaytirishga, vaqtni tejashga va umumiy operatsion samaradorlikni oshirishga imkon yaratadi. Samarali logistika boshqaruvi orqali tashkilotlar raqobatbardoshligini saqlab qolishlari va muvaffaqiyatli rivojlanishlariga erishishlari mumkin.

Logistika faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha sohalar, shu jumladan, transport, saqlash, ta'minot zanjiri boshqaruvi, axborot texnologiyalari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, barqaror logistika, va xodimlarni boshqarish bo'yicha o'zgarishlar va yangiliklar orqali jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish mumkin. Bu sohalarda amalga oshirilgan o'zgarishlar nafaqat logistika xarajatlarini kamaytirishga, balki mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

XULOSALAR

Zamonaviy qurilish va boshqa sohalarda logistika faoliyatining samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, resurslarni optimal taqsimlash, transport tizimini va saqlash jarayonlarini yaxshilashni, axborot texnologiyalari va raqamli tizimlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Logistika jarayonlarining samarali boshqarilishi nafaqat xarajatlarni kamaytirishga, balki vaqtni tejash, mahsulot sifatini yaxshilash va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashga yordam beradi. Hozirgi kunda, ishlab chiqarish va qurilish jarayonlarida samarali logistika tizimlarini joriy etish uchun kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga, resurslarni tejashga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarga muhtoj.

Transport vositalarini va yo'nalishlarni optimallashtirish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va logistika jarayonlarining samaradorligini oshirish zarur.

Avtomobil, temir yo'l va havo transporti kabi turli transport tizimlarini integratsiyalash va marshrutlarni real vaqtda optimallashtirishni joriy qilish.

Ta'minot zanjirini yaxshilash va zanjirdagi barcha bosqichlarni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Xodimlarning motivatsiyasini oshirish va rag'batlantirish tizimlarini yaratish, bu orqali ishlab chiqarish va logistika jarayonlarida samaradorlikni oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev A. Qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasi (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2019. – 27 bet.

2. Jo'raeva N.Q. Uy-joy kommunal xizmatlari sohasi korxonalarini faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2020. – 115-b.

3. Xonkeldieva G.Sh., Muminova E.A., Mirzaev A.T., Asraqulov A.A. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi: zamonaviy holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari: Monografiya. – Toshkent, “Navro‘z”, 2020. –162 b.

4. МИРСОДИКОВ, А. Т. (2021). БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ. БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 7(10), 329-335.

5. Мирсодиков, А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ЦЕПЕЙ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. Solution of social problems in management and economy, 2(8), 22-29.

6. Mirsodikov, A. (2023). IMPROVING THE MANAGEMENT METHODOLOGY OF LOGISTICS CHAIN ACTIVITY MANAGEMENT IN THE CONSTRUCTION FIELD. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(15), 33-40.